

**BUXORO DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASIDA SAQLANAYOTGAN  
SAYQALIY QALAMIGA MANSUB MANBALAR**

*Sultonova Dilovar Ne'matillo qizi  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
O'zbek tili va adabiyoti universiteti  
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)  
mutaxasisligi bo'yicha 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Maqola Sayqaliyning “Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasida” saqlanayotgan oltita manba haqida ma'lumot berilgan. Bu asarlarda ilgari surilgan mavzular ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qiyomatnama, shafoat, tammatul kitob, Fotima, Jibril, kotib, nasta'liq.

“Biror millatning madaniyatini, tarixini bilmoxchi bo'lsang, uning adabiyotiga boq” deydi donishmandlardan biri. O'zbek xalqi azal-azaldan buyuk davlatga, buyuk madaniyatga hamda buyuk adabiyotga ega bo'lgan. Mana shunday adabiyot vakillaridan Sobir Sayqaliy Hisoriyidir. Sobir Sayqaliy ijodiy merosini ilmiy jihatdan o'rganish 1960- yillardan boshlandi. Bizgacha Sobir Sayqaliydan boy adabiy meros yetib kelgan. Shoir asarlari uning hayotlik davridayoq shuhrat topib, kotiblar tomonidan ko'plab nusxada ko'chirilgan. Keyinchalik bu meros bir necha bor nashr etilgan. Shunday asarlardan Buxoro shahrida saqlanayotgan manbalar diqqatga sazovor.

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasida Sayqaliy qalamiga mansub 6ta manba saqlanmoqda. Ular 1) 11262/11 inventar raqami ostida Payg'ambarlar tarixi kitobi



2) 22347 inventar raqami ostida kitob nomi yozilmagan 104 varoq. 3) 23727/11 inventar raqami ostida Kitobi Sayqaliy nomli kitob 1269-hijriy 249 varoq.





4) 12173 inventar raqami ostida kitob nomi yozilmagan 1250-hijriy. 5) 31032/11 inventar raqami ostida kitob nomi yozilmagan 1259-hijriy 302 varoq.



6) 12382/11 inventar raqami ostida Qiyomatnoma nomli kitob 114 varoq.




Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasida 12382/11 inventar raqami ostida "Qiyomatnama" nomli kitobi saqlanadi. Asar Nasta'liq xati, qora siyoh bilan qo'qon qog'oziga yozilgan. Kitobning boshidagi varoqlari yo'q, har bir bet 17 qatordan nazmiy uslubda yozilgan. Ba'zi betlarida poygir mavjud. Asarda 2ta kitob bo'lib, ikkala kalafon qismi ham arab tilida yozilgan. Kitobga och yashil rangli qattiq kartondan muqova qilingan. Muqova asar yozilgan davrga tegishli emas, keyinchalik ta'mirlangan. O'lchami 25.5x15.5 sm. Kitob 227 bet 114 varoq. Kitobning oxiridan 16 bet oldinda bir kitob tugagani yozilgan. Kotibiga Mulla Abdulhamid Samarqand deb yozilgan. Sana:1286-hijriy.



1-kitobning 1-va oxirgi beti.

Izlanishlar shuni ko'rsatdiki 1-kitob "Qissai Sayqaliy" ning bir qismi ekani ma'lum bo'ldi. 2-kitob esa "Qiyomatnama" ekani aniqlandi.



2-kitobning 1-beti va oxirgi beti. Quyida 1-betning tabdili

### Bismillohir rohmanir rohiym

Qiyomat keldi nogoh xotirmig'a  
 Bu necha nizom keltursom naylamki  
 Xabarda kelmish ul nanakla qiyomat  
 Yozilgom anda ko'p turluk alomat  
 Anga iymon kim tasdiq aytoni  
 Bayoni sar haddi bakonjuki yononi  
 dastida sur Isrofil paydo  
 Hamma joni o'z tani birla muridda  
 Irsot ahli jamla xulq olam  
 Ko'targoni xoki din boshin ushlum  
 Xudoni izzatinda Azza va Jalla  
 Muhammad Mustafoning hurmatinda  
 Ko'targoy bosh ushladim jumla yodini  
 Ko'tarmagoy boshin Fotima yoridin  
 Xudo aytgoy ayo Jibril borg'il  
 Kishi qolg'oni bormu anda ko'rgil  
 Degil Jibril ayo xoloq olam  
 O'zung yaxshi bilursan kim milam

Kishi qolmaydur anda yoqolibdur  
Ki, ko'rdum Fotimani oqolibdur  
Qilur farmoni ayo Jibril borg'il  
Banga kelmay turur Fotima yurgil  
Salomimni yetur borib angosin  
Na arz etsa kelib olg'il mingosin  
O'shol Mahshar kunini nuri kelibuni  
Jami hurlaring jo'ri kelibuni

### **Kitobning oxirgi beti**

Muhammadni qilib izn shafoat  
Alar qilg'ay shafoatda qiyomat  
Muhammad bahri jo'sh u soat  
Bori ummatlarin etgay shafoat  
Qilib Sayqal mehnatlarni u holat  
Jamoling barchani qilg'il karomat  
Xatoyi sofi iymonin salomat  
Tutu eltgin behisht ichra hidoyat  
Navisanda o'qig'ondin tilak bu  
Alarni yorlaqosun Xoliq Hu  
**Tammatul kitob biavnil mulkil**  
**Vahhob fi shahri jumodus soniy**  
**Sana:1286**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sharq adabiyotida islom dini tarixini yorituvchi asarlar mohiyatan uzoq qadimiyatga borib taqaladi. Folklor bilan yozma adabiyot bir-biri bilan bevosita aloqador bo'lganligi bois ham ular badiiy adabiyotning shakllanishi va rivojida o'ziga xos o'rinn tutgan. shoirning tarix va hayotdan olgan taassurotlari ham o'zining badiiy talqinini topgan. Unda hayotiy voqeа va hodisalar ma'lum syujetga bog'langan holda insonning ichki tuyg'u-kechinmalari orqali aks ettirilgan. Yuqorida keltirilgan mabalarni o'rganish, tadqiqi qilish manbashunoslar oldidagi dolzarb muammolardan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 11262/11 inv.(Buxoro muzey-qo'riqxona)
2. 22347 inv. (Buxoro muzey-qo'riqxona)
3. 23727/11 inv. (Buxoro muzey-qo'riqxona)
4. 12173 inv. (Buxoro muzey-qo'riqxona)
5. 31032/11 inv. .(Buxoro muzey-qo'riqxona)
6. 12382/11 inv. .(Buxoro muzey-qo'riqxona)